

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO HUQUQ NORMALARINI YARATISHDAGI ISHTIROKI

Habibullayeva Sadoqat Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Yoshlarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda har bir davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida tegishli normalarni qabul qilishi hamda ularning samarali ijro mehanizmini yo'lga qo'yishi zarur. Shu o'rinda aytish joizki, bugungacha mamlakatimizda yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

**Kalit so'zlar:** Siyosat, O'zbekiston, xalqaro huquq, yoshlar siyosati, yoshlar huquqlari.

Bugungi shiddatli zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalar inson aqlini shoshirib qo'yishi, shubhasiz. Insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlari yosh avlodning intellektual salohiyati, yuksak aqliy qobiliyati hamda huquq va manfaatlarining ta'minlanishiga bog'liqdir. Hozirgi kunda yoshlar jahon aholisining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu sababli, yoshlarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash har bir davlatning oldida turgan eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda har bir davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida tegishli normalarni qabul qilishi hamda ularning samarali ijro mehanizmini yo'lga qo'yishi zarur. Shu o'rinda aytish joizki, bugungacha mamlakatimizda yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Biroq, tan olib aytish kerakki, hozirgi kunda jahon miqyosida yoshlarning huquq va manfaatlarini o'zida ifoda etgan, davlatlarning yoshlar siyosati sohasidagi majburiyatlarini o'zida belgilagan, milliy va xalqaro darajada qarorlar qabul qilishda yoshlarning ishtirok etish huquqini kafolatlagan, shuningdek barcha davlatlar tomonidan tan olingan yaxlit, xalqaro huquqiy hujjat mavjud emas.

Shu sababli, 2020 yil 23 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tarixiy nutqida Tashkilotga a'zo davlatlarni **Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashra** chaqirdi.

Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha tashabbus jahon miqyosida yoshlar huquqlariga doir muhim masalalarni o‘zida ifoda etgan xalqaro huquqiy hujjatni qabul qilishni nazarda tutuvchi ilk taklif ekanligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur xalqaro hujjatning loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ko‘plab amaliy chora-tadbirlar ko‘rildi. Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti va Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolari ham o‘z taklif va tashabbuslari bilan ishtirok etishdi. Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish xalqaro ahamiyatga molik bo‘lgan quyidagi ijobjiy jihatlari bilan ahamiyatlidir:

**birinchidan**, u yuqorida ta’kidlanganidek jahon miqyosida yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minalash va bu borada davlatlar oldidagi xalqaro majburiyatlarni belgilab beruvchi yaxlit xalqaro huquqiy hujjat bo‘ladi;

**ikkinchidan**, Konvensiya loyihasida jahon miqyosida ilk marotaba yoshlar, ya’ni yosh shaxslar tushunchasiga umumiy huquqiy ta’rif belgilanmoqda:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida yoshlar tushunchasi biror marta ishlatilmaganligi ham Konvensianing yoshlar masalasidagi asosiy xalqaro huquqiy hujjat maqomiga ega ekanligi borasidagi fikrlarimizning isbotidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida yoshlar tushunchasiga berilgan huquqiy tarifda **o’n to‘rt yoshga to‘lgan va o’ttiz yoshdan oshmagan shaxslar** yoshlar hisoblanishi belgilangan;

**uchinchidan**, davlatlarning yoshlar siyosati sohasidagi majburiyatlari, yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirishga ko‘maklashish bo‘yicha vazifalari aniq belgilanmoqda: Unga muvofiq, ishtirokchi davlatlar yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan **12 ta majburiyat** va yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha **15 ta vazifasi** nazarda tutilmoqda;

**to‘rtinchidan**, Konvensiya loyihasida ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan yoshlarni har jihatdan qo’llab-quvvatlanishi barobarida **oila institutini saqlash va oilada yoshlarning sog‘lom kamol topishini ta’minalashga xizmat qiladigan norma** nazarda tutilmoqda:

Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zbek davlatchiligi rivojlanishining tarixiy ildizlari oila institutiga, undagi asriy qadriyatlar hisoblanmish sadoqat, mehr u vafo va farzandlar tarbiyasiga e’tibor kabi ezgu qadriyatlarga tayanadi. Shu sababli, ham oila institutining maqomi mamlakatimiz Bosh Qomusida belgilangan. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari asosida dunyo miqyosida yoshlarning sog‘lom kamol topishini

ta'minlashda oilaning rolini yanada oshirish, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari xalqaro norma ijodkorligi jarayonida ilgari surilmoqda. Mazkur ezgu tashabbuslar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining 1 va 3-maqsadlarida hamda 2030 yilgacha bo'lgan davrda erishilishi belgilangan barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 3-maqsadining 3.7-vazifasida ham nazarda tutilgan;

**beshinchidan**, davlatlar o'z yurisdiksiyasi doirasida fuqarolari bo'lmish yoshlarni, shuningdek chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lman yoshlarni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi belgilanmoqda: Avvalo, aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi tomonidan Konsepsiya loyihasida ilgari surilayotan takliflar xalqaro inson huquqlari sohasida e'tirof etilishi bilan birga, dunyo miqyosida amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida umum e'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni joriy etish, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslarning huquq va manfaatlarini davlat tomonidan kafolatlashning zarur huquqiy asoslari belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi”;

**oltinchidan**, Konvensiya loyihasida milliy va xalqaro darajada qaror qabul qilishda yoshlarning ishtirok etishi huquqi aniq belgilab berilmoqda:

Yoshlarning va yoshlar tashkilotlarining milliy darajada jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash, yoshlarning o'zlarining hayotiga taalluqli qonunchilikni ishlab chiqish hamda siyosatni shakllantirish, uni monitoringini olib borish va o'tkazishda ishtirok etishlarini ta'minlash masalalariga doir normalar nazarda tutilmoqda.

**yettinchidan**, Konvensiya loyihasida yoshlarning shaxsiy hayot huquqini kafolatlash nazarda tutilmoqda:

Unga muvofiq, yoshlarning har bir vakili shaxsiy hayoti huquqi, ixtiyori qo'lida bo'lishi huquqi, shaxsiy hayot mahfiyligi, yozishmalarining mahfiyligi va shaxsiy maqomi himoya qilinishiga doir qoidalar aniq belgilanmoqda.

**sakkizinchidan**, Konvensiya loyihasida yoshlarning zo'ravonlikka duchor bo'lishdan va ekspluatatsiya qilinishidan saqlanishi davlat tomonidan kafolatlanishi nazarda tutilmoqda:

Xususan, unda har bir ishtirok etuvchi davlatning o'z yurisdiksiyasidagi hududda yoshlarga nisbatan zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishning har qanday turlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligida majburiy mehnat, iqtisodiy kamsitish va mehnat sohasida ekspluatatsiya qilinishga doir harakatlarning oldini olish uchun samarali qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqa choralarни ko'rishi belgilanmoqda.

Mazkur xalqaro norma O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 7-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda majburiy mehnatning taqiqanishiga doir qoidalar aniq ko‘rsatib o‘tilgan;

**to‘qqizinchidan,** Konvensiya loyihasida yoshlarning o‘z mamlakati hududida to‘siksiz harakat qilish, yashash va turish joyini tanlash, o‘zining mamlakatini va har qanday boshqa mamlakatni tark etish hamda o‘z mamlakatiga qaytish huquqiga ega ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilmoqda:

Shuningdek, Konvensiya loyihasida qochoqlar deb hisoblanadigan yoshlarni zarur darajada himoya qilish, ularga nisbatan qo‘llaniladigan huquqlar va ularga insonparvarlik yordamini ko‘rsatishga doir norma nazarda tutilmoqda;

**o‘ninchidan,** Konvensiya loyihasida yoshlari huquqlari masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlikning qamrovi va sohalari aniq belgilanmoqda:

Unga muvofiq, ishtirok etuvchi davlatlar yoshlari huquqlarini ta’minlash masalalarini qamrab oladigan xalqaro dasturlar; o‘zaro axborot, tajriba va ilg‘or ishlanmalarni ayirboshlash; texnikaviy-iqtisodiy yordam taqdim etish, shu jumladan, texnologiyalar bilan o‘zaro almashish va texnologiyalarni uzatish, ilmiy-texnikaviy bilimlarni tadqiq etish va ulardan foydalanish kabi sohalarda yaqin hamkorlikni amalga oshirishi nazarda tutilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasining qabul qilinishi butun dunyo yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash va yoshlari siyosati masalalarida xalqaro hamkorlikni aniq soha va yo‘nalishlarda olib borilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Saidov A.X. Xalqaro huquq. -Toshkent. “Adolat”. 2001y.
1. Saidov A.X. Xalqaro huquq sxemalarida. -Toshkent. “Adolat”. 2001 y.
2. Mamatqulov A. Xalqaro huquq. -Toshknet. “Adolat”. 1998 y.
3. To‘zmuhammedov R.A., Hakimov R.T. Xalqaro xuquq asoslari. -Toshkent. “Adolat”. 1998 y.
4. Mirzajonov K., Xakimov R. Международное права: Учебные схемы. -Тошкент. 1993 й.